

UDK: 636.32

QORAKO‘L QO‘ZILARNI TIRIK VAZN KO‘RSATKICHLARI

Rajabov Oxunjon Tuyg‘un o‘g‘li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

Nazarova Mohira Azamatovna

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi
chorvachilik va biotexnologiyalari universiteti

Annotatsiya: Maqolada qorako‘l qo‘zilarni tug‘ilganda va 1,5 oylikdagi tirik vazni ko‘rsatkichlar har xil tipli qorako‘l qo‘ylari bilan taqqoslanganli to‘g‘risida ma‘lumot keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Gul tipi, yassi, qovurg‘asimon, yarim doira, qorako‘l qo‘zilari, qalamgul.

Ключевие слова. Плоский, ягнят, полукруглый, ребристый, кавказский.

Qorako‘l qo‘y zoti dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarda urchitiladi. Ushbu mamlakatlar qatorida O‘zbekiston, Janubiy Afrika Respublikasi, Namibiya, Afg‘oniston davlatlari qorako‘lchilik eng yuqori darajada rivojlangan davlatlar hisoblanadi. Dunyoda qorako‘l qo‘ylarini urchitish, ularni ko‘paytirish, irsiy va mahsuldorlik xususiyatlarini takomillashtirish bo‘yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada yirik chorvachilik markazlarida turli mahsuldorlik yo‘nalishlaridagi qorako‘l qo‘ylarining foydali xo‘jalik belgilari, biologik, mahsuldorilik, urchitish xususiyatlarini aniqlash; irsiy imkoniyatlaridan foydalanib, go‘sht, jun mahsuldorligini

oshirishning ilmiy asoslangan usullarini ishlab chiqish va takomillashni taqazo etmoqda.

O‘zbekistonda milliy iftixorimizdan biri bo‘lgan va jahonda tengi yo‘q qorako‘l qo‘y zotining kelib chiqish tarixi va kelgusida rivojlantirilib borilishi qizilqum cho‘li bilan bog‘liq. Ushbu zot hozirgi kunda turli qimmatli ranglar bilan boyitilgan. Ular orasida sur rangi o‘zining jun qoplaminig uchki qisminig ochroq bo‘lishi bilan ajralib turadi va sur qorako‘l terilarning rangbarangligini, xilma-xilligini ta‘minlaydi. Sur terilarning bunday xususiyati ularning yuqori narxda sotilishi va keng iste‘mol talabini belgilaydi.

Qorako‘l qo‘ylarining muhim seleksion belgilarining nasldan–naslga berilishi qo‘zilarning o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlariga sezilarli darajada bog‘liq. Konstitutsional mustahkam, yaxshi o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan qo‘ylarda belgilarning namoyon bo‘lishi kuchayadi, ularning nasli va qorako‘l terilarining sifati yaxshilanadi.

Ma‘lumki, qorako‘l qo‘ylari tug‘ilganda qorako‘l gullarining tipi va shaklliga ko‘ra to‘rtta gul tipiga (yarim doira qalamgul, qovurg‘asimon, yassi va o‘siqgul) ajratilib, shulardan o‘siqgul tipi kam qimmatli, qolganlari qimmatli tiplar hisoblanadi.

Urchitishda shu bilan bir qatorda teri qoplaminig qalin–yupqaligi, pishiqligi, qo‘zilarning konstitutsional, o‘shish va rivojlanish ko‘rsatkichlarini ham inobatga olish ahamiyatli hisoblanadi.

Har bir gul tipiga mansub bo‘lgan qo‘ylar belgilarning namoyon bo‘lishi bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarga egaki, bu xususiyatlarni ularni urchitish va seleksiyalashda hisobga olish lozim bo‘ladi. Tiplarga mansubligiga qarab ba‘zi seleksion belgilarning avlodlarga berilishi ma‘lum farqlanishlarga ega. Shu nuqtai nazardan ushbu o‘ziga xos xususiyatlar bo‘yicha qo‘ylarni urchitish va shu asosda ularning salohiyatidan samarali foydalanishda mos keluvchi tanlash va juftlash usullarini qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Qorako‘l qo‘ylarida mavjud bo‘lgan gul tiplariga mansub hayvonlarning konstitutsional va tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha bir–biridan ma‘lum darajada farqlanishi ko‘pchilik tadqiqotlar tomonidan o‘rganilgan.

Ushbu yo‘nalishda sur rangli yassi va boshqa tiplardagi qo‘ylarda qayd etilgan xususiyatlarning namoyon bo‘lish darajalarini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Natijalar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Turli gul tipidagi qo‘zilarning tirik vazn ko‘rsatkichlari

Gul tipi	n	Tirik vazn, kg			
		Tug‘ilganda		1,5 yoshda	
		($\bar{X} \pm S_x$)	Sv %	($\bar{X} \pm S_x$)	Sv %
Yassi	50	3,74 \pm 0,05	11,54	37,9 \pm 0,36	7,94
Yarim doira qalamgul	50	4,12 \pm 0,04 ^{x)}	8,44	38,3 \pm 0,37 ^{x)}	7,84
Qovurg‘asimon	50	4,07 \pm 0,06 ^{x)}	10,26	38,6 \pm 0,39 ^{x)}	6,78
O‘siqgul	40	4,32 \pm 0,08 ^{x)}	12,09	36,4 \pm 0,43 ^{x)}	6,92

X) - $R < 0,001$

Jadval ma’lumotlari qo‘zilarning konstitutsiya tiplari hamda tirik vazn ko‘rsatkichlari bo‘yicha zot standartlariga mos kelishini ko‘rsatadi. Gul tiplariga bog‘liq holda qo‘zilarning aksariyat qismi tug‘ilganda 3,76-4,54 kg, 1,5 yoshligida 37,9-41,4 kg tirik vazn ko‘rsatkichlariga egaligi bilan xarakterlanadi.

Shu bilan bir qatorda ta’kidlash lozimki, yassi qo‘zilar salmog‘ining boshqa tiplarga nisbatan biroz yuqoriligi kuzatiladi, o‘siqgul tipli qo‘zilar esa sezilarli qismi farqlanadi.

Tajribadagi ma’lumotlarga ko‘ra tirik vazn ko‘rsatkichi bo‘yicha yassi tipli qo‘zilar tug‘ilganda ham, jinsiy voyaga etgan 1,5 yoshli davrida ham boshqa tiplarga nisbatan statistik ishonchli ($R < 0,001$) pastroq ko‘rsatkichlar bilan xarakterlanishi kuzatildiki, buni yassi tipli qo‘ylarni seleksiyalashda e’tiborga olish lozim bo‘ladi.

XULOSA

Yassi tipli sur rangli qorako‘l qo‘ylarini seleksiyalash xususiyatlarini o‘rganish asosida ta’kidlash mumkinki, ushbu tipdagi qo‘ylar zotning eng qimmatli guruhlari

qatoriga kiradi. Buni ularda qator muhim seleksion belgilarning namoyon bo‘lish darajalarining yuqoriligi bilan izohlash mumkin. Shu bilan bir qatorda ushbu tipli qo‘ylarni seleksiyalashda tirik vazn ko‘rsatkichini ko‘tarishga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Bobokulov N.A., Yuldoshov N., Fazilov U.T., Xakimov O‘.N. va boshqalar. “Qorako‘lchilikda naslchilik ishlarini yuritish va qo‘zilarni baholash (bonitirovka qilish) bo‘yicha qo‘llanma. Toshkent.:2015.31 b
 2. Yusupov S.Yu., Gaziev A., Fazilov U.T., Mamatov B., Boltaev A., “Qorako‘l qo‘zilarida seleksion belgilarni paydo bo‘lish xususiyatlari. Zootsiyeneriya j.Toshkent №6. 2016, 34-34 b.
- Юсупов С.Ю., Ахмедов Ф.А., Фазилов У.Т., Газиев А. Селекция и племенные ресурсы в каракульском овцеводстве.Монография Ташкент. 2010,205 с